



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

**“Meharli maktab” davlat ta’lim muassasasi o‘qituvchi-pedagoglari
va mutaxassislari uchun seminar tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. **Joriy yilning 18-20-aprel** kunlari **Meharli maktabning rahbar, pedagog va mutaxassislari** hamda Meharli maktab tomonidan e’lon qilingan tanlovga muvofiq suhbat natijasida **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan** saralab olingan **nomzodlar** (keyingi o‘rinlarda – nomzodlar) uchun xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda o‘quv-amaliy seminar (keyingi o‘rinlarda – seminar) tashkil etilsin.

2. Seminarni tashkil etish bo‘yicha **xarajatlar smetasi** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning **xarajatlar smetasi mablag‘lari** doirasida amalga oshirilsin.

4. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan **davlat xaridlarini** belgilangan tartibda amalga oshirsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda **to‘lovlarni amalga oshirilishini** ta’minlasin.

6. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda – Milliy-tadqiqot instituti) (A.Radjiev)ga:

seminarga jalb etiladigan nomzodlarni **kutib olish** va ularni Milliy-tadqiqot instituti **yotoqxonasiga** joylashtirish;

seminar davomida Milliy-tadqiqot instituti balansida bo‘lgan **avtobusni** nomzodlar xizmatida bo‘lishini ta’minlash vazifalari topshirilsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Andijon va Farg‘ona viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari seminarga jalb etilgan nomzodlar xavfsizligini ta’minlagan holda

belgilangan muddatlarda Toshkent shahriga xizmat safariga yuborilishini ta'minlasin.

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti (N.Abdurasulova), Toshkent shahridagi "Mehrlil maktab" davlat ta'lim muassasasi (N.Alimova) seminarini o'tkazish uchun barcha zarur (kompyuter texnikasi, proyektor, magnitli doska va h.k.) sharoitlarni yaratsin.

9. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda hududiy boshqarma va bo'limlarga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X. Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil "29"- mart ,
72 -son